








Maxsus internat maktabda o‘qiyotgan o‘quvchini inklyuziv tartibdagi umumta’lim maktabiga o‘tkazish tartibi




Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen maxsus maktabda o‘qiyotgan o‘quvchini inklyuziv umumiy maktabga o‘tkazish haqida bilib olasan.
	**Ixtisoslashtirilgan maxsus maktablar** — bu nogironligi bor bolalarni o‘qitadigan va davolaydigan **maxsus maktab.**
	**Inklyuziv maktab** — bu nogironligi bor bolalar hamma bolalar bilan birga o‘qishi uchun maxsus sharoitlar yaratilgan **umumiy maktab.**
	Sening maxsus maktabda o‘qiydigan bolangda jismoniy yoki ruhiy nogironlikning yengil darajasi


	bo‘lsa o‘zing yashaydigan joydagi inklyuziv maktabga o‘tkazishing mumkin.
	Yengil darajadagi nogironlik turlari bular: ● ruhiy rivojlanishdan orqada qolishning yengil turi ● yengil darajadagi aqli zaiflik ● zaif eshitish ● zaif ko‘rish ● bolalardagi yengil falajlik va boshqalar.
	Inklyuziv maktabda nogironligi bor bola uchun kerakli sharoit yaratilgan bo‘lsa, bolani maxsus maktabdan inklyuziv maktabga o‘tkazish mumkin.
	Sen xohlagan vaqting nogironligi bor bolangni maxsus maktabdan inklyuziv maktabga o‘tkazishing mumkin.

	Maxsus maktabdan inklyuziv maktabga bolani o‘tkazish uchun, bolada **ikkinchi** yoki **uchinchi guruh nogironlik** bo‘lishi kerak.
	Birinchi guruh nogironligi bor bolani inklyuziv maktabda o‘qitish **mumkin emas.**
	Masalan: ● Umuman ko‘zi ko‘rmaydigan yoki yura olmaydigan birinchi guruh nogironligi bor bola inklyuziv maktabda o‘qishi mumkin emas.
	Sen bolangni maxsus maktabdan inklyuziv maktabga o‘tkazish uchun: ● tuman, shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasiga ariza berishing kerak.

	Arizani tekshiruv guruhi ko‘rib chiqadi.
	Shifokorlar guruhi yaxshi xulosa bersa, maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi o‘sha kunning o‘zida **yo‘llanma beradi.**
	Yo‘llanma berilganidan keyin sen bolangning tanlagan maktabingga o‘qishini ko‘chirishing mumkin.
	Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi yo‘llanma bergani haqida bolang o‘qiyotgan maxsus maktabga xat yuboradi.

	Maxsus maktab direktori xatni olganidan keyin, bolangni o‘quvchilar ro‘yxatidan chiqarish haqida buyruq beradi.
	Direktor buyruq bilan seni tanishtirib, imzo qo‘ydirishi kerak.
	Sen inklyuziv maktab direktoriga berishing kerak bo‘lgan: ● maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi bergan yo‘llanma ● shifokorlar xulosasi ● va boshqa kerakli hujjatlar.
	Sen inklyuziv maktab direktori nomiga bolangni shu maktabga o‘qitish uchun ariza yozishing kerak.

	Maktab direktori shu kunning o‘zida nogironligi bor bolani maktabning inklyuziv sinfdagi o‘quvchilar ro‘yxatiga kiritish haqida buyruq chiqaradi.
	Inklyuziv maktab direktori bolang darslardan qolib ketmasligi uchun sharoit yaratib berishi kerak.
	Shifokorlar guruhining arizalarni ko‘rib chiqish tartibi: ● boladagi nogironlik holatini og‘irlik darajasini tekshirish ● bola inklyuziv maktabda o‘qiyotganida undagi nogironligi kuchayib ketishi mumkin bo‘lgan holatlarini aniqlash ● bolani inklyuziv maktabga moslashishini o‘rganish.
	● Ko‘rish va nutq-eshitishda nogironligi bor bolalar uchun inklyuziv maktablar tashkil etilmagan.

	Bola maxsus maktabdan inklyuziv maktabga o‘tganda nogironlik nafaqa pulini o‘zi olishi mumkin bo‘ladi.